

“Ipoteka-bank” OTP Groupda kreditlarni restrukturizatsiya qilish tartibidan ko’chirma

(To‘lov jadvalining amal qilish muddatini uzaytirish)

Barcha jismoniy shaxslar uchun kredit mahsulotlariga

Mundarija

1. Umumiy Qoidalar.....	3
2. Qiyin Hayotiy Vaziyatlar va Fors-Major holatlari Ro'yxati.....	3
3. Ariza uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati.....	4
4. Restrukturizatsiya.....	5
5. Ko'rib chiqish muddatlari (SLA)	5
6. Rad etish tartibi va asoslantirilgan javob	5



1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib jismoniy shaxslarning moliyaviy qiyinchiliklar, qiyin hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda amaldagi kredit shartnomalari bo'yicha to'lov jadvalining amal qilish muddatini uzaytirish orqali kredit majburiyatlarini restrukturizatsiya to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqish jarayonini belgilaydi.

2. Mazkur Tartib Bankning jismoniy shaxslarga ajratilgan barcha kredit mahsulotlariga, jumladan oflayn kreditlarga (ipoteka kreditlari, avtokreditlar, mikroqarzlarga) hamda onlayn mikroqarzlarga nisbatan tatbiq etiladi. Subsidiyalangan kreditlar (davlat dasturlari asosida jalb qilingan resurslar hisobidan ajratilgan kreditlar) ushbu Tartib doirasiga kirmaydi va restrukturizatsiyaga tortilmaydi. Shuningdek, ushbu Tartib doirasida kredit shartlarining boshqa o'zgarishlari (foiz stavkasini kamaytirish, kredit oraliq to'lovlari bo'yicha ta'til berish, foizlarni hisoblashni to'xtatib turish va boshqalar) ko'rib chiqilmaydi.

3. Og'ir hayotiy vaziyatlar, moliyaviy qiyinchiliklar yoki fors-major holatlari tufayli qarz oluvchining to'lov qobiliyati pasayishi restrukturizatsiya uchun asos bo'ladi.

4. Mazkur Tartib quyidagilarga muvofiq ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2696-sonli Nizomi
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3030-sonli nizomi
- Bankning tasdiqlangan Kreditlash siyosati

5. Mazkur Tartib filiallar va call-markazga yetkazilishi, restrukturizatsiya uchun ariza berish uchun talab etiladigan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar esa bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

2. Qiyin hayotiy vaziyatlar va fors-major holatlari ro'yxati

Qarz oluvchi quyidagi holatlardan biri yoki bir nechta yuzaga kelganda kreditni restrukturizatsiya bo'yicha ariza taqdim etishi mumkin:

- qarz oluvchining ikki oydan ortiq muddatga vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi, natijada uning oylik daromadi avvalgi o'n ikki oy uchun o'rtacha oylik daromadga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi;
- qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinishi va kambag'allikni qisqartirish hamda bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) bo'limida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi, natijada uning oylik daromadi avvalgi o'n ikki oy uchun o'rtacha oylik daromadga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi;
- qarz oluvchining turmush o'rtog'i vafot etishi, bunda u birgalikdagi qarz oluvchi va/yoki kafil bo'lgan bo'lsa;
- qarz oluvchining I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxsni parvarish qilishi yoki bunday qaramog'idagi shaxslar sonining ortishi;
- qarz oluvchiga I yoki II guruh nogironligi belgilanishi;
- tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;
- qarz oluvchining homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi.

3. Ariza uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati

Restrukturizatsiya bo'yicha ariza qabul qilinishi uchun qarz oluvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

1. Barcha holatlar uchun majburiy hujjatlar.
 - kreditga layoqatlilik pasayishining sabablarini ko'rsatgan holdagi restrukturizatsiya bo'yicha ariza.
 - STIR (JShShIR) ko'rsatilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjat.
2. Restrukturizatsiya bo'yicha murojaat asosiga ko'ra talab etiladigan majburiy hujjatlar.

Holat	Hujjatlar
Qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinganligi	Ishdan bo'shatish/qisqartirish to'g'risidagi buyruq nusxasi, bandlik markazi ma'lumotnomasi / mygov.uz saytidan olingan mehnat faoliyati to'g'risidagi ko'chirma
Qarz oluvchining vaqtincha mehnatga layoqatsizligi	Tibbiy xulosa, VTEK ma'lumotnomasi, mehnatga layoqatsizlik varaqasi
Qarz oluvchining turmush o'rtog'i vafot etganligi, bunda u birgalikdagi qarz oluvchi va/yoki kafil bo'lgan bo'lsa	O'lim to'g'risidagi guvohnoma, qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjatlar
Qarz oluvchiga I yoki II guruh nogironligi belgilanganligi	Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi (TIEK) tomonidan berilgan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnoma; asl nusxa yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali olingan ma'lumotnoma.
Qarz oluvchining I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxsni parvarishga olganligi yoki bunday qaramog'idagi shaxslar soni oshganligi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi (TIEK) tomonidan berilgan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnoma; asl nusxa yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali olingan ma'lumotnoma. 2. Qarz oluvchining mazkur shaxsni qaramog'iga olganligini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlardan biri: mahalla, hokimiyat yoki ijtimoiy himoya organlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma; asl nusxa yoki nusxa
Tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi	Ko'rik dalolatnomasi, vakolatli organ ma'lumotnomasi, foto tasdiqlar
Qarz oluvchining homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tegishli tuman poliklinikasi tomonidan berilgan ma'lumotnoma (asl yoki nusxasi) hamda ish beruvchining homiladorlik va tug'ish ta'tili berish to'g'risidagi buyrug'i (nusxa). 2. Agar farzand tug'ilgan bo'lsa — tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma (asl nusxa yoki nusxa) hamda ish beruvchining homiladorlik va tug'ish ta'tili berish to'g'risidagi buyrug'i (nusxa)
Boshqa holatlar	Bank talabi asosida holat yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar

4. Restrukturizatsiya

1. Tahlil va kreditni restrukturizatsiya bo'yicha qaror qabul qilish.

Muvofiqlik mezonlari:

Restrukturizatsiya so'rovi tasdiqlanishi va restrukturizatsiya qilingan kredit muddati quyidagi qoidalarni bajargan mijozlar uchun mahsulotning maksimal muddatiga qadar uzaytirilishi mumkin (ham qarz oluvchi, ham birgalikda qarz oluvchi uchun amal qiladi):

- Barcha talab etiladigan hujjatlar taqdim etilgan va restrukturizatsiya holatlari normativ asosdagi holatlarga kiradi;
- Restrukturizatsiya qilish kerak bo'lgan kredit bo'yicha so'nggi 30 kun ichida muddati o'tgan kredit qarzdorligi 30 kundan ortiq bo'lmagan;
- Hozirda ichki yoki tashqi kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud emas;
- Mijoz restrukturizatsiya tuzish uchun murojaat qilgan asosiy hodisa ariza topshirilgan sanadan oldingi to'rt oy ichida yuzaga kelgan (normativ talabga muvofiq);
- Ariza topshirilgan sanadan oldingi ikki oy uchun o'rtacha oylik daromad avvalgi o'n ikki oy o'rtacha oylik daromadiga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi (normativ talabga muvofiq);
- Mijozda allaqachon davom etayotgan yoki yakunlangan restrukturizatsiya holati mavjud;
- Maksimal muddat uzaytirish barcha holatlar uchun 6 oy, homiladorlik holatlarida esa 10 oy;
- Kredit ajratilgan sanadan restrukturizatsiya arizasi sanasigacha kamida 6 oy o'tgan bo'lishi;
- Mijoz birgalikdagi qarz oluvchisiz va rasmiy daromadsiz o'zini-o'zi band qilgan shaxs bo'lmashligi.

2. Tahlil natijalariga ko'ra mijozning restrukturizatsiyaga muvofiqligi bo'yicha qaror shakllantiriladi. Mazkur Tartib doirasida qaror faqat to'lov jadvalini uzaytirishni nazarda tutadi.

5. Ko'rib chiqish muddatlari (SLA)

Restrukturizatsiya bo'yicha arizani ko'rib chiqishning umumiy muddati mijozning restrukturizatsiya bo'yicha murojaati filial tomonidan qabul qilingan sanadan boshlab qarorni ijro etish yoki rad javobini yuborish (yozma rad etish shakli yuboriladi)gacha bo'lgan davrda 15 ish kunidan oshmasligi lozim.

6. Rad etish tartibi va asoslantirilgan javob

1. Restrukturizatsiya bo'yicha ariza yuzasidan salbiy qaror qabul qilingan taqdirda, Bank mijozga yozma shaklda asoslantirilgan javob taqdim etishi shart.

2. Asoslantirilgan javob quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- Rad etish asoslari
- Ariza mos kelmaydigan mezonlarga havola
- Holatlar o'zgargan taqdirda mijozning qayta murojaat qilish huquqi to'g'risidagi ma'lumot.